



TOSHKENT  
FARMATSEVTIKA  
INSTITUTI

TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTINING  
85 YILLIGIGA BAG'ISHLANGAN  
“FARMATSEVTIKA SOHASINING BUGUNGI HOLATI:  
MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR”  
MAVZUSIDAGI III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI  
MATERIALLARI

МАТЕРИАЛЫ III МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ,  
ПОСВЯЩЁННОЙ 85-ЛЕТИЮ  
ТАШКЕНТСКОГО ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА  
«СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ  
ОТРАСЛИ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ»

ABSTRACT BOOK OF THE 3<sup>RD</sup> INTERNATIONAL  
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE DEDICATED  
TO THE 85<sup>TH</sup> ANNIVERSARY OF THE  
TASHKENT PHARMACEUTICAL INSTITUTE  
“MODERN PHARMACEUTICS:  
ACTUAL PROBLEMS AND PROSPECTS”



**85** YIL  
TOSHFARMI  
1937-2022

TOSHKENT - 2022

**Усул ва услублар:** яхшилаб майдаланган 20 гр дан ошқозон, ичак алоҳида ўлчов колбаларга солинди, уларнинг устига 20 мл дан бензол куйилди. Колбалар электрочайқатгичда 20 дақиқа давомида чайқатилди ва мунтазам чайқатиб турилган ҳолда хона ҳароратида 2 соатга қолдирилди. Бензолли ажратмалар филтрланди ва қуруқ қолдиқ қолгунча буғлатилди. Қолдиқ 0,5 мл хлороформда эритилди ва тўртта хроматографик пластинкаларнинг старт чизигига биринчи нуктага ошқозондан, иккинчи нуктага 2 см оралиқ масофада ичакдан ажратиб олинган хлороформли эритмалари ва ашёвий далил сифатида келтирилган Маршал инсектицидидан томизилди. Хроматографик пластинкалар хона ҳароратида қуритилди. Иккита хроматографик пластинка бензол буғлари билан тўйинтирилган хроматографик камерага жойлаштирилди. Қолган иккита хроматографик пластинка эса диоксан – хлороформ – ацетон – 25% аммиак (47,5:45:5:2,5) нисбатда тайёрланган хроматографик камерага туширилди. Намлик хроматографик пластинкалар бўйлаб 10 см га кўтарилганда хроматографик камерадан чиқарилди ва хона ҳароратида қуритилди. Хроматографик пластинкалар УБ нурида кўрилганда ошқозон ва ичакдан ажратиб олинган хлороформли эритмаси томизилган нукталарда ҳамда ашёвий далил сифатида келтирилган Маршал инсектициди томизилган нукталарда нур товланишлари кузатилди.

**Натижалар:** бензолли камерадан чиқарилган биринчи хроматографик пластинкага бромфенол кўки ва 5% сирка кислотаси пуркалганда ошқозон ва ичакдан ажратиб олинган хлороформли эритмаси томизилган нукталарда ҳамда ашёвий далил сифатида келтирилган Маршал инсектициди томизилган нукталарда  $R_f$ -0,25; 0,40; 0,62; 0,80 га тенг бўлган масофаларда яшил-сарғимтир рангли доғлар ҳосил бўлди. Бензолли камерадан олинган иккинчи хроматографик пластинкага формалиннинг концентрланган сульфат кислотадаги эритмасидан томизилганда ошқозон ва ичакдан ажратиб олинган хлороформли эритмалари томизилган нукталарда ҳамда ашёвий далил сифатида келтирилган Маршал инсектициди томизилган нукталарда  $R_f$ -0,25; 0,80 га тенг бўлган масофада кизил-пушти рангли доғлар ҳосил бўлди. Диоксан – хлороформ – ацетон – 25% аммиак (47,5:45:5:2,5) сақлаган камерадан олинган хроматографик пластинкага висмут йоднинг калий йоддаги эритмаси пуркалганда ошқозон ва ичакдан ажратиб олинган бензолли қолдиқнинг хлороформли эритмалари томизилган нукталарда ҳамда ашёвий далил сифатида келтирилган Маршал инсектициди томизилган нукталарда  $R_f$ -0,62 га тенг бўлган масофада сарик рангли доғлар ҳосил бўлди. Диоксан – хлороформ – ацетон – 25% аммиак (47,5:45:5:2,5) сақлаган камерадан олинган кейинги пластинкага формалиннинг концентрланган сульфат кислотадаги эритмасидан томизилганда ошқозон ва ичакдан ажратиб олинган хлороформли эритмалари томизилган нукталарда ҳамда ашёвий далил сифатида келтирилган Маршал инсектициди томизилган нукталарда  $R_f$ -0,20-0,80 га тенг бўлган масофада кизил пушти рангли доғлар ҳосил бўлди.

**Хулосалар:** ички абзолардан ошқозон ва ичакдан ажратиб олинган ажралма ва намуна сифатида келтирилган Маршал инсектицидини юпка қатлам хроматографиясида текширилиб солиштирилганда бир хил  $R_f$  натижалар ва бир хил рангли доғлар кузатилди. Бу текширилувчи биологик объектлар таркибидаги модда ва инсектицид идентификация қилинганида келтирилган биологик объектлар таркибида модда ва гувоҳ инсектицид бир хил эканлиги аниқланди.

## TIAMETOKSAM PESTITSIDINI MIKROKRISTALOSKOPIK TAHLILI

**Zulfikariyeva D.A., O'rinboveva I.R.**

Toshkent farmasevtika instituti, Toshkent sh., O'zbekiston Respublikasi

e-mail: inobatorinboveva@gmail.com

**Dolzarbliqi:** so'nggi vaqtlarda neonikotinoidlar guruhiga mansub pestitsidlar qishloq xo'jaligida keng ko'lamda ishlatilmoqda. Bu guruh pestitsidlari dunyoning 40 dan oshiq davlatlarida qo'llaniladi. Ular asosan insektitsid, insekto-akaritsid vosita sifatida qo'llaniladi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligida deyarli barcha o'simliklarni turli zararkunandalardan himoya qilishda neonikotinoidlar guruhiga mansub bo'lgan tiametoksam pestitsidi qo'llaniladi. Pestitsid yuqori zaharli moddalar sinfiga mansub. Insonlar orasida tiametoksam bilan zaharlanish holatlari qayd etilgan. Uning keng ko'lamda qo'llanishi va yuqori zaharliligini inobatga olib, pestitsid qo'llanilgan holda ma'lum ehtiyotkorlik choralarini ko'rish lozim bo'ladi. Shu munosabat bilan tiametoksamni turli biologik ashyolardan ajratib olish va tahlil qilish uslublarini takomillashtirish va mo'tadil uslublarni ishlab chiqish hamda ularga ta'sir etadigan omillarni o'rganish dolzarb vazifadir. Mazkur pestitsid kimyo-toksikologik nuqtai nazardan chuqur va to'liq o'rganilmaganligini inobatga olib, tiametoksam bilan zaharlanish holatlari ro'y berganda tez tibbiy yordamni aniq ko'rsatish uchun qon, peshob, oshqozon chayindi suvlari, laboratoriya hayvonlari ichki a'zolaridan ajratib olish usullarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda bu borada qilinayotgan izlanishlar juda ham kam bo'lib, barcha o'simlik xom ashyolarini nazoratdan o'tkazish imkoniyatini bermaydi. Shu munosabat bilan so'nggi vaqtlarda keng maydonlarda yetishtirilayotgan dorivor o'simlik va uning xom ashyosi tarkibidagi pestitsid qoldiq miqdorlarini ajratib olib aniqlash uslublarini yaratish dolzarb vazifadir. Kimyo-toksikologik tahlillarda dastlabki tahlil usullari ishning unumli bajarilishiga yordam beradi. Shunday usullardan biri mikrokristaloskopik tahlil usulidir.

**Tadqiqotning maqsadi:** tiametoksam pestitsidi bilan zaharlanish hollari yuz berganda dastlabki tahlilni o'tkazish uchun mikrokristaloskopik tahlil usullarini ishlab chiqish.

**Usul va uslublar:** mikrokristaloskopik reaksiyalar buyum oynachasi ustida bajariladi, buyum oynachasiga tekshirilayotgan modda standart eritmasi tomizilib quruq qoldiq qolguncha xona haroratida quritildi. Quruq qoldiq xlorid kislotasi eritmasida eritilib, so'ng tegishli reaktiv tomizildi. Mikrokristallar hosil bo'lishi uchun buyum

oynachasini nam kameraga 20-30 daqiqaga qoldirildi. Hosil bo'lgan mikrokristallar o'lchami 20-50 mk kattalikda bo'lishi kerak. Mikroskristalloskopik usul asosida kristallarning umumiy xarakteristikasi va hosil bo'lish sharoitlari o'rganiladi. Kristallanish shart-sharoitlariga qarab turli kattalikdagi kristallar hosil bo'ladi. Kristallanish jarayoni ikki bosqichda boradi: avval juda kichik kristallizatsiya markazi hosil bo'ladi, so'ng eritmadagi shu modda ionlari va molekularini birikishi hisobiga kristall kattalashadi (o'sadi). Kristallik cho'kma hosil bo'lishi uchun birinchi bosqich sekin borishi kerak. Bunda kristallanish markazlari kam bo'ladi, lekin yirik kristallar hosil bo'ladi. Yirik kristalli cho'kmalar hosil qilish uchun suyultirilgan va issiq eritmalarga reaktiv ta'sir ettiriladi. Konsentrlangan eritmaga konsentrlangan reaktiv ta'sir ettirilganda, mazkur modda uchun xarakterli bo'lmagan mayda kristallar hosil bo'ladi. Tekshiriladigan modda bilan reaktiv o'rtasidagi reaksiya sekin ketadigan bo'lsa, reaktiv erituvchilari bug'lanmasligini ta'minlash uchun buyum oynachasi nam kameraga qo'yiladi. Bir nechta buyum oynasiga tayyorlangan tiametoksamning spirtli eritmasidan 1-2 tomchi tomizib, xona haroratida quritildi. So'ngra mikrokristall hosil qiluvchi bir qator reaktivlardan alohida tomizilib, nam kamerada 20-30 daqiqa saqlandi. Vaqt o'tgach mikroskop ostida hosil bo'lgan mikrokristallarni ko'rildi.

**Natijalar:** olib borilgan izlanishlar natijasida tiametoksam pestitsidi mis-yod kompleksi bilan sariq prizmatik kristallarni hosil qildi. Temir-yod kompleksi, xlor-rux-yod reaktiv, kobalt rodanid eritmasi, reyneke tuzi, Dragendorf reaktiv, Bushard reaktiv va pikrin kislotasi bilan kristallar hosil bo'lmadi.

**Xulosalar:** izlanishlar asosida tiametoksam pestitsidini mikroskristalloskopik tahlil usuli ishlab chiqildi. Tiametoksam bilan aniq, o'ziga xos shaklga ega mikrokristall hosil qiluvchi reaktiv tanlab olindi. Ushbu uslub tiametoksam bilan zaharlanish yuz berganda sud-kimyo ekspertizasida dastlabki tahlil usuli sifatida qo'llash tavsiya etildi.

### ТОКСИЧНОСТЬ СУММ ПОЛИСАХАРИДОВ ИЗ БУТОНОВ И ПЛОДОВ *CAPPARIS SPINOZA*

**Ф.М. Турсунходжаева, Р.А. Ботиров, А.А. Азаматов, Д.М. Саидходжаева,**

**А.З. Садиқов, Ш.Ш. Сагдуллаев**

Институт химии растительных веществ им. акад. С.Ю. Юнусова АН РУз, Ташкент, Республика Узбекистан  
e-mail: [ftm40438@gmail.com](mailto:ftm40438@gmail.com)

**Актуальность:** растение *Capparis spinosa* хорошо известно в народной медицине, а также используется в пищу в странах Кавказа и Центральной Азии. Выявлена мелатонин-стимулирующая, противовоспалительная, гипополидемическая, противовирусная, гипогликемическая, антиоксидантная активность водных экстрактов растения. Каперсы применяются при лечении сахарного диабета в израильской медицине. Рандомизированные, плацебо контролируемые исследования показали, что экстракта плодов каперсов оказывают гипогликемическое и гипотриглицеридемическое воздействие на пациентов с сахарным диабетом II типа. В Институте химии растительных веществ АН РУз проводится изучение фармакологической активности и токсичности различных экстрактов и отдельных веществ, выделенных из каперсов.

**Цель:** определение токсичности сумм полисахаридов из полисахаридов из бутонов и плодов *C. spinosa*.

Эксперименты с соблюдением Международных рекомендаций Европейской конвенции по защите позвоночных животных, используемых при экспериментальных исследованиях.

**Материалы и методы:** оценку острой токсичности сумм полисахаридов из бутонов и плодов *C. spinosa* проводили на беспородных белых мышах – самках массой 18-20 г, полученных из питомника «Линейные лабораторные животные» Ташкентской области. Животные содержались в стандартных условиях вивария с естественным 12-часовым светотеневым циклом, при температуре воздуха 20±2°C. Питание осуществлялось в соответствии с нормами кормов для экспериментальных животных. Исследуемые вещества вводили перорально при помощи атравматического металлического зонда в дозах от 500,0 до 11500,0 мг/кг. Каждую дозу препарата испытывали на 6 мышах. После однократного применения препарата за состоянием подопытных животных наблюдали в течение 14 суток. Среднюю смертельную дозу определяли по методу Литчфилда и Уилкоксона.

**Результаты:** острая токсичность полисахаридов из бутонов каперса. Введение полисахаридов из бутонов *C. spinosa* в дозах 500-1000-2000 мг/кг per os через 8-10 минут приводило к снижению двигательной активности, проходящей через 60-80 минут. При этом дыхательный ритм, сердцебиение, слуховая и болевая чувствительность оставались в пределах нормы. В дозе 3000-4000-5000-600 мг/кг двигательная активность снижалась через 5-6 минут после введения. Смертности животных в этих дозах не наблюдалось. В дозе 7000 мг/кг двигательная активность мышей снижалась через 5 минут, наблюдалось снижение дыхательных движений, тремор головы, икота, расползание лапок. Начиная с 17ой минуты возникали судороги и гибель 1 животного из 6. Дальнейшее повышение дозы приводило к снижению болевой и слуховой чувствительности, тремору и судорогам с 12ой минуты после введения, гибели 2х животных из 6. Доза 7600 мг/кг приводила к расслаблению двигательных мышц в течение 5 минут, тремору головы, икоте, судорогам и гибели 3 животных из 6 в течение 7 минут. Гибели животных в течение суток не наблюдалось. В дозе 8000 мг/кг наблюдалась гибель всех животных в течение 24 часов. LD<sub>50</sub> составила 7600 (6608,8±8740,0) мг/кг.

**Острая токсичность полисахаридов из плодов каперса.** Введение в дозах 500-1000-2000-3000-4000-5000 мг/кг приводило к снижению двигательной активности в течение 7-10 минут. При этом дыхание, сердцебиение, болевая и звуковая чувствительность оставались в пределах нормы, в течение суток смертности животных не наблюдалось. В дозах 6000-7000-8000-9000 мг/кг через 4 минуты после введения наблюдалось снижение

qabul qilinmaydi, endi ular mikroelementlar, vitaminlar manbai va tanani umumiy mustahkamlash uchun vositadir. Biologik faol oziq-ovqat qo'shimchalari haqida ko'plab afsonalar mavjud. Bioaktiv oziq-ovqat qo'shimchalari Rossiya yaqin tibbiy tovarlar va xizmatlar bozorida muhim o'rin tutadi. Bu narx bilan bog'liq - ko'pincha biologik faol qo'shimchalar dori-darmonlarga qaraganda arzonroq va "kimyo" emas, balki "tabiiy" ni tanlash tendentsiyasi. Biologik faol oziq-ovqat qo'shimchalari (BFQ) - bu oziq-ovqat bilan bevosita qabul qilish yoki oziq-ovqat mahsulotlariga kiritish uchun mo'ljallangan biologik faol moddalar va ularning tarkibi. biologik faol qo'shimchalar oziq-ovqat, ular dori emas. Ular biologik faol moddalarning (vitaminlar, minerallar, aminokislotalar) qo'shimcha manbai sifatida ularning yetishmasligini bartaraf etish va parhezni optimallashtirish uchun ishlatiladi.

**Tadqiqotning maqsadi:** oziq-ovqat qo'shimchalari bilan zaharlanish holatlarini o'rganish va YuQX skrining yordamida ba'zi alkaloidlarni dastlabki tahlil qilish uchun yagona uslubini ishlab chiqish.

**Usullar va uslublar:** butun dunyodagi ko'plab oziq-ovqat qo'shimchalari ishlab chiqaruvchilari nafaqat tasdiqlangan terapevtik ta'sirga ega o'simlik xom ashyosidan, balki harakat tamoyili o'rganilmagan, shuningdek, xavfli va oddiygina zaharli moddalardan ham foydalanadilar. Qo'shma Shtatlarda giyohvand moddalarni qaytarib olishning yarmidan ko'pi ruxsat etilmagan ingredientlarni o'z ichiga olgan biologik faol qo'shimchalardir. Biologik faol qo'shimchalar ko'pincha sog'liq uchun xavflidir (tarkibida kuchli moddalar, ba'zi hollarda hatto giyohvand moddalar yoki psixotrop dorilar mavjud). Xususan, bozorga yangi moddalarni oziq-ovqat qo'shimchalari ko'rinishida olib kelish va kelajakda bu moddalarni dori sifatida ro'yxatdan o'tkazish odatiy holdir. Shunday qilib, potentsial yuqori faol va hatto zaharli moddalar oziqovqatga o'xshash "salomatlik" mahsuloti brendi ostida darhol foyda olish uchun bozorga chiqariladi. Ommaviy axborot vositalari ko'pincha semirishni davolashda qo'llaniladigan biologik faol qo'shimchalar, amfetamin va uning hosilalari, diuretiklar va laksatiflarning ba'zi kuchli dorilari topilgani haqida xabar berdi. Biologik faol qo'shimchalar dorilar bilan o'zaro ta'sir qiladi, ularning ta'sirini susaytiradi yoki kuchaytiradi. Oziq-ovqat qo'shimchalari ko'pincha dori sifatida qabul qilinganligi sababli, bu odamning tibbiy yordamga murojaat qilishda kechikishiga olib keladi, bu esa uning holatida qaytarilmas o'zgarishlarga olib keladi. AQSh statistik ma'lumotlariga ko'ra, har yili 23 ming qo'ng'iroqlar parhez qo'shimchalarini qabul qilishning nojo'ya ta'siri bilan bog'liq. Bu holatlarda sud-tibbiy ekspertizasini o'tkazish tezkor usullarni taqozo etadi. Izlanishlarimiz natijasida BFQlar tarkibida uchrashi mumkin bo'lgan alkaloid saqlovchi o'simliklarni aniqlash uchun tahlil usullari o'rganildi. Bunda qulay usullardan biri YuQX skrining usuli bo'lib turli alkaloidlar uchun tahlil sharoitlari ishlab chiqildi.

**Natijalar:** atropin, skopolamin, kapsitsin, koniim, teofillin alkaloidlari uchun xloroform-atseton-dietilamin (50:30:2) nisbatdagi aralashmasi; xelidonin, sangvinarin, berberin alkaloidlari uchun butanolsirka kislotasi-suv (40:10:10) nisbatdagi aralashmasi qo'zg'aluvchi faza sifatida taklif etildi. Barchasining hosil qilgan dog'larini ochuvchi reaktiv sifatida Dragendorf reaktiv taklif etildi. Ishlab chiqilgan usullar biologik suyuqliklar va biologik ob'ektdan ajratilgan alkaloidlarni tozalash uchun tavsiya etildi. Olingan natijalar o'rganilayotgan o'simliklarning alkaloidlarini aniqlash va tozalash uchun ishlab chiqilgan YuQX skrining usulining mosligini ko'rsatdi.

**Xulosalar:** o'rganilgan xorijiy va mahalliy normativ hujjatlar va xun takviyeleri bilan zaharlanish holatlarini kimyoviy-toksikologik tahlil qilish bo'yicha adabiyotlar ma'lumotlari asosida mavjud ma'lumotlarni tizimlashtirishga yondashuv taklif qilindi. Oziq-ovqat qo'shimchalarini ishlab chiqarishda sertifikatlash shartlarini qayta ko'rib chiqish kerak. Qo'shimchalarning tarkibi va tozaligini diqqat bilan tekshirish odamlarning xavfsizligiga yordam beradi. O'simliklardan, biologik suyuqliklardan (qon, siydik, oshqozonni yuvish), shuningdek, biologik ob'ektlardan (murdaning ichki a'zolari) ko'plab xun takviyalarining bir qismi bo'lgan o'simlik alkaloidlarini ajratib olishning optimal usullari ishlab chiqilgan va ularni amalga oshirish uchun tavsiya etiladi. amaliyot. Har bir o'simlik alkaloidini turli ob'ektlardan ajratilgan balast moddalaridan tozalash uchun optimal YuQX skrining texnikasi va ba'zi alkaloidlar uchun elutsiya texnikasi ishlab chiqilgan. O'tkir zaharlanish holatlarida ekspress tahlil qilish uchun YuQX skrining usulidan foydalanish imkoniyati qayd etildi.

## МАРШАЛ ИНСЕКТИЦИДИДАН ЗАҲАРЛАНИШ ҲОЛАТЛАРИДА БИОЛОГИК ОБЪЕКТДАН АЖРАТИБ ОЛИШ ВА ИДЕНТИФИКАЦИЯ ҚИЛИШ

**Бердиярова Ш.Н., Усманиева З.У**

Республика суд-тиббий экспертиза илмий-амалий марказининг Тошкент вилояти филиали суд-кимё бўлими, Тошкент ш., Ўзбекистон Республикаси  
Тошкент фармацевтика институти, Тошкент ш., Ўзбекистон Республикаси  
e-mail: [toshvilsteb@mail.ru](mailto:toshvilsteb@mail.ru)

**Долзарблиги:** инсектицидлар лотинча insectum-хашорат, caedo-ўлдираман деган маънони билдиради. Амалиётда қишлоқ хўжалигида ишлатиладиган инсектицидлардан заҳарланиш ҳолатлари тез-тез учраб турибди. Ана шундай заҳарли таъсир кўрсатадиган инсектицидлардан Маршал ошқозон-ичак тизими бўйича тез ва узоқ таъсир этадиган системали инсектицид ҳисобланади. Бу инсектициднинг асосий таъсир этувчи моддаси карбосульфан бўлиб, эмульсия концентрати ҳолида чиқарилади. Кенг спектрли таъсирга эга. Қишлоқ хўжалигида ундан ногўғри қўллаш оқибатида заҳарланиш ҳолатлари учраб турибди. РСТЭИАМ Тошкент вилоят филиали суд-кимё бўлимига Маршал инсектицидидан заҳарланиб вафот этган уч ёшли А.А.В.исмли боланинг ички аъзо бўлақлари келтирилди.

**Тадқиқотнинг мақсади:** маршал инсектицидини биологик объектлардан ажратиб олиш ва унинг суд-кимёвий таҳлили мақсад қилиб олинди.

EFFECT OF TALATIZAMINE ON MITOCHONDRIAL LIPID PEROXIDATION //Muratova D.Kh., Asrarov M.I.....	349
INHIBITORY EFFECT OF LUTEOLIN-7-METHYLETHER IN ESTROGEN BIOSYNTHESIS ON HUMAN OVARIAN GRANULOSA CELLS //Azimova B.J., Wang Fei.....	349

7-SEKSIYA. SUD VA KLINIK TOKSIKOLOGIYA.  
СЕКЦИЯ-7. СУДЕБНАЯ И КЛИНИЧЕСКАЯ ТОКСИКОЛОГИЯ.  
SECTION-7. FORENSIC AND CLINICAL TOXICOLOGY.

XROMATOSPEKTROFOTOMETRIK USULDA INDAPAMID DORI VOSITASINING SIFAT VA MIQDORINI ANIQLASH //Abdullabekova N.A., Usmanaliyeva Z.U.....	351
МЕТОДИКА ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ МАЛЫХ КОЛИЧЕСТВ МЕФЕДРОНА С ПОМОЩЬЮ ИК-СПЕКТРОФОТОМЕТРИИ //Ташпулатов А.Ю., Абдуллаева М.У., Халилова Н.Ш., Сидаметова З.Э., Олимов Н.К.....	352
МЕТАПРОЛОЛ ДОРИ ВОСИТАСИ БИЛАН ЗАҲАРЛАНГАНДА, ТАҲЛИЛ ОБЪЕКТЛАРИДАН АЖРАТИБ ОЛИШ //Холикова З.А.....	352
АМЛОДИПИН ДОРИ ВОСИТАСИ БИЛАН ЗАҲАРЛАНГАНДА, ТАҲЛИЛ ОБЪЕКТЛАРИДАН АЖРАТИБ ОЛИШ //Холикова З.А., Олимов Х.К.....	353
FORENSIC TOXICOLOGICAL STUDY OF ENALAPRIL BY CHROMATO-MASS SPECTROMETRY //Abdullayeva M.U., Khalilova N.Sh., Tashpulatov A.Yu., Raximova D.A., Olimov N.K.....	354
МЕТОДИКА ЭКСПЕРТНОГО АНАЛИЗА СЛЕДОВЫХ КОЛИЧЕСТВ НЕИЗВЕСТНОГО ВЕЩЕСТВА НА ПРЕДМЕТАХ-НОСИТЕЛЯХ //Абдуллаева М.У., Халилова Н.Ш., Ташпулатов А.Ю., Олимов Н.К., Сидаметова З.Э.....	354
UV-СПЕКТРОФОТОМЕТРИК USULDA KETOTIFENNI SIFAT VA MIQDORIY TAHLILI //Kamolova S.G., Usmanaliyeva Z.U.....	355
BIOSUYUQLIKLARDAN LEVAMIZOLNI TDSIS USULDA TAHLILI //M.S.Abdug'afforoy, Z.U.Usmanaliyeva.....	355
ANALYSIS BY GAS LIQUID CHROMATOGRAPHY OF THE SOLVENT USED FOR DISSOLVING VARNISH AND PAINTS //Z.A.Yuldashev, M.I.Nurmatova.....	356
БАКЛОСАН ПСИХОТРОП МОДДАСИНИ ИК-СПЕКТРОФОТОМЕТРИЯ УСУЛИ ЁРДАМИДА АНИҚЛАШ //Халилова Н.Ш., Бонсхўжаева А.А., Абдуллаева М.У.....	357
СУД-КИМЁ АМАЛИЁТИДА ВЕРАПАМИЛ ДОРИ ВОСИТАСИДАН ЗАҲАРЛАНИШ //Н.М.Мирзарахмонова, М.И.Нурматова.....	358
ДИАЗОЛИННИ БИОЛОГИК ОБЪЕКТЛАРДАН АЖРАТИБ ОЛИШ ВА УНИНГ СУД- КИМЁВИЙ ТАҲЛИЛИ //Д.С. Избосарова, Ш.Н.Бердиярова.....	359
BFQ LAR BILAN ZAXARLANISH HOLATLARIDA KIMYO-TOKSIKOLOGIK TAHLIL USULLARINI QO'LLASH //Toshpo'latov B.S., Zulfikariyeva D.A.....	359
МАРШАЛ ИНСЕКТИЦИДИДАН ЗАҲАРЛАНИШ ҲОЛАТЛАРИДА БИОЛОГИК ОБЪЕКТДАН АЖРАТИБ ОЛИШ ВА ИДЕНТИФИКАЦИЯ ҚИЛИШ //Бердиярова Ш.Н., Усманиева З.У.....	360
ПАМЕТОКСАМ PESTITSIDINI MIKROKRISTALOSKOPIK TAHLILI //Zulfikariyeva D.A., O'rinboeva I.R.....	361
ТОКСИЧНОСТЬ СУММ ПОЛИСАХАРИДОВ ИЗ БУТОНОВ И ПЛОДОВ <i>CAPPARIS SPINOZA</i> //Ф.М. Гурсунходжаева, Р.А. Ботиров, А.А. Азаматов, Д.М. Саидходжаева, А.З. Садиков, Ш.Ш. Сагдуллаев.....	362
ИЗУЧЕНИЕ ОСТРОЙ ТОКСИЧНОСТИ МЕЛАНИНА, ВЫДЕЛЕННОГО ИЗ ОБОЛОЧЕК СЕМЯН КАШТАНА КОНСКОГО ( <i>AESCVLUS HIPPOCASTANUM L.</i> ) //Азимова Л.Б., Филатова А.В., Выпова Н.Л., Абрекова Н.Н., Тураев А.С.....	363
РАЗРАБОТКА МЕТОДИКИ ЖИДКОСТНОЙ ХРОМАТОГРАФИИ В ХИМИКО- ТОКСИКОЛОГИЧЕСКОМ ИССЛЕДОВАНИИ АМЛОДИПИНА //Мусабеков Ж.Т., Серикбаева А.Д., Ордабаева С.К.....	364
МЕТОД RVL В ПОДГОТОВКЕ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ СПЕЦИАЛИСТОВ В	